KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 50 (580) 2025-YIL, 1-NOYABR

YUNESKO G'OYALARI BILAN HAMOHANG QADRIYATLARIMIZ E'TIROF ETILDI





Sadir JAPAROV:

"YUNESKO sessiyasining Samarqandda o'tkazilishi – O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzining yana bir yuksak e'tirofidir"

Samarqand shahri YUNESKO Bosh konferensiyasiga mezbonlik qilmoqda. Bu tarixiy voqelik nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Zero, mazkur nufuzli anjuman madaniyat, ta'lim, fan, innovatsiyalar va shu kabi eng muhim sohalardagi dolzarb masalalarni muhokama qilishga bag'ishlangan.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi raisi Xondker Muhammad Talxa nutq so'zlab, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning "bilim va hikmat – insonning ziynatidir" deb yozgan misralarini tilga oldi.

– Bu so'zlar O'zbekiston Prezidentining yo'lini – ta'lim, fan, meros, jamiyatga xizmat qilish va umumiy farovonlikka bag'ishlangan yo'lni juda yaxshi aks ettiradi, – dedi sessiya raisi.

Ushbu qadriyatlar YUNESKO g'oyalari bilan hamohang bo'lib, shu bois bugun O'zbekistonning muhtaram Prezidenti biz bilan bir davrada ishtirok etayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Prezidenti Oliy Janoblarining yo'li – bu o'zida ilmiy bilimdonlikni, boshqaruv donoligini va mamlakat taqdiri uchun chuqur mas'uliyat hissini mujassam etgan haqiqiy davlat arbobining yo'lidir.

Amaliy tajriba va strategik fikrlashga tayanib, u O'zbekistonning rivojlanishi bo'yicha zamonaviy tasavvurni shakllantirdi va uni jamiyat manfaati yo'lida ishonch bilan amalga oshirmoqda.

Uning rahbarligida mamlakatda barcha yo'nalishlarda misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishildi.

O'zA muxbiri B.XUDOYBERDIYEV yozib oldi.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi boshlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va butun o'zbek xalqini tabrikladi.

Japarov o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida yozgan tabrigida mazkur tarixiy voqea Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, YUNESKO sessiyasining Parijdan tashqarida ilk bor 40-yildan so'ng o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotganidan, shuningdek, butun Markaziy Osiyo mintaqasi madaniy, ma'naviy va gumanitar hamkorlik markazi sifatida tobora katta e'tirofga sazovor bo'layotganidan dalolat beradi.

– Samarqand shahri ilm, ma'rifat va ma'naviyat beshigi sifatida konferensiyaga alohida ramziy ahamiyat bag'ishlaydi. Bu O'zbekistonning sivilizatsiyalar o'rtasidagi ko'prik, tinchlik va hamjihatlik g'oyalarining markazi sifatidagi rolini yana bir bor namoyon etadi, – deyiladi tabrikda.

Sadir Japarov shuningdek, konferensiya doirasida ilgari suriladigan qaror va tashabbuslar ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratishiga, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga va butun mintaqaning ravnaq topishiga xizmat qilishini ta'kidladi.

Qirg'iziston rahbari o'zbek xalqiga forumni muvaffaqiyatli o'tkazish, samarali muhokamalar, ilg'or qarorlar va ilhomlantiruvchi natijalar tiladi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA MUROSASIZLIK – YOSHLAR POZITSIYASI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada yoshlarni halollik, adolat, qonuniylik va mas'uliyat ruhida tarbiyalash, korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi tomonidan ham mazkur yo'nalishda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Korrupsiyaning barcha tuman va shaharlarida "Halollik – eng oliy fazilat", "Korrupsiyasiz kelajak bizning qo'limizda" shiori ostida 500 dan ortiq uchrashuv, davra suhbati va seminar-treninglar tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda 50 mingdan ziyod yoshlar, ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari, yosh tadbirkorlar hamda fuqarolik jamiyati vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvlar davomida Adliya, Prokuratura, коррупцияга qarshi kurashish agentligi, Ichki ishlar va Soliq boshqarmasi vakillari ishtirok etib, yoshlarga korrupsiya xavf-xatarlari, halollik me'yorlari va qonuniylik tamoyillari haqida tushunchalar berdi.

(Davomi 2-betda).

PUL "GAPIRISHI"DAN QACHON QUTILARMIZ

Sarlavhani o'qishingiz bilan: «Nima bu yozuvchimiz juda bir ajoyib ekan-ku», - deyishingiz tabiiy hol. Kimga ham yoqmaydi, ishi oson bitishi? Hammasi besh bo'lishi uchun shunchaki cho'ntagingiz «qappaygan» bo'lsa kifoya, olam guliston. Siz uchun hamma eshiklar ochiq, maktabga bormay, a'lo baholarga bitirasiz, oliy ta'limga kirmoqchimisiz, mana marhamat kursingizni tanlang, o'qigingiz kelmayaptimi, mayli diplomni shunday berib qo'yaveramiz. Ishga kirishingiz kerakmi, ozgina «kal bobo»dan ayamasangiz ish yo'q joydan bo'm-bo'sh ish o'rni tappa-tayyor. Qanday ajoyib shunday emasmi?!

«Haqiqat ko'p ulug' narsa-ku, bitta kamchiligi bor: har doim ham shirin bo'lavermaydi. Achchiq haqiqat foydali narsa-ku, uning ham bitta kamchiligi bor: har kimga ham yoqavermaydi»,- degan edi O'tkir Hoshimov o'zining «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarida. Darhaqiqat, hozirgi «pul gapiradigan» zamondagi bir necha «muammochalar»ni so'ylasak, aybga buyurishmas.

(Davomi 2-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA MUROSASIZLIK – YOSHLAR POZITSIYASI

(Davomi. Boshi 1-betda).



Yoshlar ishlari boshqarmasi tashabbusi bilan mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyatiga halollik tamoyillarini singdirish maqsadida maxsus o‘quv-treninglar o‘tkazildi. Viloyatdagi 879 ta mahalla yoshlar yetakchilari “Korrupsiyasiz muhit – halol xizmat” treninglarda ishtirok etib, amaliy qo‘llanmalar, infografik plakatlar va video roliklar bilan ta’minlandi. Shuningdek, har bir mahallada yoshlar bilan “Halol fuqarolik pozitsiyasi” mavzusida suhbatlar tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Har bir tuman va shaharda namunaviy yoshlar yetakchilari o‘z hududlarida korrupsiyaning oldini olishga коррупция-нинг targ‘ibot tadbirlarini tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, tizimda ichki nazoratni kuchaytirish va xodimlar mas’uliyatini oshirish maqsadida “Halollik kodeksi” mavzusida muntazam suhbatlar o‘tkazilmoqda. 2025-yilning o‘tgan davrida 100 dan ortiq tizim xodimlari halollik standartlari, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, xizmat etikasi va axborot shaffofligi bo‘yicha maxsus seminar-treninglarda qatnashdi.

Boshqarmada har oyda “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat kuni” amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, unda xodimlarning faoliyati, yoshlar bilan ishlashdagi shaffoflik va hisobot intizomi tahlil etilmoqda.

Yoshlar ishlari boshqarmasi tomonidan “Korrupsiyasiz hayot – yoshlar tanlovi” shiori ostida ijtimoiy video roliklar, banner va animatsion plakatlar tayyorlanib, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib etilmoqda.

Fuqarolar va yoshlarning murojaatlarini halol, shaffof va tezkor ko‘rib chiqish tizimi ham boshqarma faoliyatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu maqsadda “Yoshlar murojaatlari monitoringi” axborot tizimi joriy etildi. U orqali har bir murojaat kunlik nazorat qilinadi.

Shuningdek, “Ochiq eshiklar kuni”, sayyor qabullar va “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari muntazam o‘tkazilib, 2025-yil davomida 2 mingdan ortiq murojaat ko‘rib chiqildi. Ulardan 80 foizi joyida ijobiy hal etildi. Murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy omillarning oldini olish maqsadida ichki nazorat komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Har bir xodimning fuqarolar bilan ishlash etikasi, halollik majburiyati va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha javobgarligi mustahkamlandi.

Boshqarma huzurida “Ishonch telefoni” va maxsus Telegram bot orqali korrupsiya bilan bog‘liq murojaatlarni anonim ravishda qabul qilish tizimi ham samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida yoshlar o‘rtasida halollik madaniyati, fuqarolik mas’uliyati va korrupsiyaga nisbatan murosasizlik hissi tobora kuchaymoqda. Mahallalardagi yoshlar yetakchilari, tizim xodimlari va fuqarolik jamiyati vakillari o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi bu yo‘nalishda barqaror natijalarga erishishga zamin yaratmoqda.

Akmaljon TANGIRQULOV,
Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i.

PUL “GAPIRISHI”DAN QACHON QUTILARMIZ?

(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiya o‘zi nima? Bizni dasta pul tutqazishimizmi yoki «marhamatli» insonlarning ishni bitirib berib himmatlarini ko‘rsatishlarimi? Fikri ojizimcha, ushbu rollar har biri o‘z mahoratlarini yetarlicha ko‘rsatmoqda. Ayni ma’noda «bir qo‘ling berganini boshqasi bilmasin» maqolini yangi talqinda ko‘rmoqdamiz: «bir qo‘ling olganini boshqasi bilmasin». Qoyilotun qoyilun!

«Bu yozuvchimiz juda gapni olarkanda» - demang. Boshdan kechirgan inson albatta biladi-da. Bunday dilni xira qiladigan holatlar kaminada ham bo‘lgan. Endi bular haqida o‘ylashdayoq, qalb og‘riydi. Mayli, yozganim bo‘lsin.

Kollej paytlari... Yaxshi o‘qish, hunar o‘rganishning ayni vaqti. Darslarga har



kuni boramiz, qoldirmaymiz, « NB» olishda qo‘rqasan-da deyishingiz mumkin, haqsiz. Endi kim ham xohlaydi, ortiqcha chiqimni. Shunday qo‘rquvlar, katta maqsadlar bilan bilim dargohimizni ham bitirdik, qo‘lda «bir quchoq» to‘rt va «ovqat umuman yemay, ozib ketgan» beshlar bilan to‘lgan ko‘m-ko‘k diplomcha. O‘qish davomida, imtihonda bir marta ko‘rgan va men o‘qituvchi deb o‘ylagan kursdoshimda esa «lovullab turgan» qip-qizil diplomcha. Yurak yondi-yu, keyin xo‘rligim keldi. Meni ham ammam o‘qituvchi bo‘lsa bo‘lmasmidi, deb tuni bilan o‘ylab chiqqandim...

Bu yerda kimni ayblashga ham hayron qoladi kishi. Istalgan yo‘nalish, istalgan kasbda bor bunday jamiyat yaralari. Xoh ta’lim, xoh san’at, xoh insonni hayotini hal qiladigan sog‘liqni saqlashda ham. «Puling bo‘lsa, sendan zo‘ri yo‘q, yo‘q bo‘lsa - xori». Maqollarni ham tuzib tashlaydi bu bechora ko‘ngil, ezilganda. Qachongacha bunday davom etamiz?!

Mening fikrimcha, o‘zgarishni avvalo, tarbiyadan, avvalo oiladan boshlash kerak. Chunki farzandga ota-ona tarbiyani yaxshi berarkan, u jamiyatga olgan tarbiyasini akslantiradi. To‘g‘ri bitta ota-ona harakat qilsa, o‘xshamas, lekin butun jamiyat bir tan-u bir jon bo‘lib harakat qilar ekan, bunday qoraliklar samaraliroq yo‘qotiladi. Zero Abdulla Avloniy bekorga: «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» deya ta’kidlamagan. O‘zgarish vaqti keldi - hamma uchun. O‘zgarishni, avvalo, o‘zimizdan boshlaylik!

Gulsanam ABDULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti filalogiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

TA’LIMDA “KO‘RINMAS G‘ANIM”GA O‘RIN BO‘LMASLIGI KERAK

Korrupsiya-jamiyat taraqqiyotining tanazzulga yuz tutish sababchisi. U “jamiyatga tushgan qurt” sifatida e’tirof etiladi, negaki ushbu illat uchun qayerda tomir otish imkoniyati berilsa, so‘nggida tasavvurga sig‘mas talafotlarni keltirib chiqarishi tabiiy holga aylanadi. Korrupsiya sababli xalq o‘rtasida ishonchsizlik tuyg‘usi kuchayib, adolat tizimining ildiziga bolg‘a uradi.



Ming afsuslar bo‘lsinki, har bir davlat va jamiyatda korrupsiya nomli “yashirin dushman” bilan uzoq yillar davomida kurashib kelinadi. Xo‘sh, bu illatning tomir otishiga kimlar yoki nimalar sababchi?

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, korrupsiyaning eng dastlabki sababi - o‘z lavozimini suiiste’mol qilishlik. Ya’ni bir shaxsga mansabi yuzasidan ishonib topshirilgan muhim vazifani moddiy taraflama (pul, lavozim kursisi va h.k ko‘rinishlarda) va’da etilgan narsa tufayli buzishdir. Bunga yaqqol misol sifatida kuni kecha Asosiy fan olimpiadasida (14-oktyabr kuni boshlanganidan, tabiiyki, xabaringiz bor) matematika fanidan test savollari jarayon boshlanmasdan avval, soat 7:32 lar atrofida, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan va 200 ming so‘m evaziga o‘quvchilarning olam-olam orzulari “pullangan”. Ushbu holat murg‘ak qalblarda “qani adolat?” degan hayqiriqlarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmaydi deysizmi? Buni biz eshitmaymiz, xolos. Ammo shukrlar bo‘lsinki, bu jarayonga korrupsiya aralashgani mutasaddilar tomonidan aniqlandi va matematikadan olimpiada qayta o‘tkazilishi belgilandi. Natijada, hech bir jinoyatning jazosiz qolmasligi tasdiqlandi.

Ikkinchidan, ushbu “ko‘rinmas g‘anim” ta’lim sohasida ham o‘rnashib olishi yurt taraqqiyotining kushandasi hisoblanadi. Negaki o‘quvchilarning ongida mavzularni to‘liq o‘zlashtirmay turib, uni pul bilan “yopib olish imkoniyati”ning mavjudligi davlatni bilimsiz kadrlar bilan “ta’minlashdan” boshqa narsa emas. Ayniqsa, tibbiyot sohasidagi korrupsion holatlar bu - hayot-mamot masalasi. Biroq so‘nggi yillarda barcha tizimlarning raqamlashtirilishi jamiyatdan asta-sekinlik bilan poraxo‘rlik illatining tomirini kesmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda har bir qalbida vatan tuyg‘usi jo‘sh urgan inson uchun korrupsiyaga qarshi kurash ham farz, ham qarzdir. Bu jihatdan o‘zbek xalqining bir yoqadan bosh chiqarishi ulkan cho‘qqilarni kafolatlaydi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqida: ”Korrupsiya - islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov”, - deya ta’kidlashi ham har bir shaxsni bunga qarshi kurashishga undamay qolmaydi.

Madinabonu TOJIXO‘JAYEVA,
Andijon davlat universiteti 1-bosqich talabasi.

BUXORO AMIRINING AVTOMASHINASI

Hozir dunyoda avtomobillarning yuzlab markalari mavjud. Zamonning tezkorligini qarangki, bugun elektromobillarga qadar yetib keldik. Holbuki, bundan bir asr oldin, ya’ni XX asr dastlabki o‘n yilligida avtotransport, ayniqsa, yengil avtomobillarning dastlabki avlodlari yaratilganida odamlar hayratga tushishgan. Ularning o‘shanda Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan Turkistonga ilk bor kirib kelishi esa “texnika mo‘jizasi”, “yerda o‘rmalovchi, o‘ziyurar afsonaviy transport” deb nom olganini arxiv manbalari tasdiqlaydi.

Professor, tarixchi olima S.B.Shadmanova XX asr boshida Turkistonda chop etilgan o‘nlab davriy matbuot materiallarini o‘rganarkan, Toshkent texnika omborida birinchi avtomobillar 1910-yillarda keltirilganini aniqladi. U “Omnibus” markali 8 o‘rindiqli avtomobil, soatiga 128 kilometr yuradigan “Bens”, “Fiat”, “Ford”, “Legio”, “Reno” rusumli mashinalar bo‘lganini isbotladi. O‘sha yillarda uch, besh, yetti va hatto sakkiz – o‘n kishilik o‘rindiqqa ega avtomobillar Toshkent shahri va atrofidagi hududlarga yo‘lovchilarni tashiy boshlagan. Avtomobillar tezligi, qulayligi, manzilga yo‘lovchilarni qisqa vaqtda yetkazishi kabi jihatlari bilan kucherlar xizmat ko‘rsatadigan foytunlardan afzal edi. Afsuski, manbalarda ilk davrlarda avtomobil kira haqi qancha bo‘lganligi bilan bog‘liq ma’lumotni uchratmadik.

Aytmoqchi, Buxoroi sharifga ilk avtomobillar qachon kirib kelganligi masalasi ham bizni juda qiziqtirib qo‘ydi. Manbalardan shu savolga javob izladik. Fors-tojik tilida, arab imlosida chop etilgan “Buxoroi Sharif” gazetasining 1912-yil 16-apreldagi sonida “Maktubi bashiora” (“Ishora maktubi”) sarlavhali xabarni o‘qish mumkin. Unda “Buxoro amirining Karmana (hozirgi Navoiy) da amirlik bog‘ida avtomobili saqlanmoqda. Ushbu avtomobil zanglamasligi uchun 150-200 tanga evaziga bir kishi biriktirib qo‘yilgan“, degan ma’lumot keltirilgan. Nazarimizda, Rossiya imperatorining topshirig‘i bilan Turkiston general-gubernatori Buxoro amirligi siyosiy ayg‘oqchiligi vositachiligida Toshkent texnika omborlaridagi avtomobillardan birini 1911-yilda taxtga kelgan Amir Olimxonga tortiq qilgan. Ushbu xabarga tayanib, 1911-1912-yillar chegarasida Buxoroga xorijda ishlab chiqarilgan avtomobil yetib kelgan, deb hisoblash mumkin.

Amirning monarxiya tartibi ag‘darilganidan so‘ng, 1920-1924-yillarda BXSRda bo‘lish vazifasi dolzarb qilib qo‘yildi. BXSRning davriy matbuoti hisoblangan “Ozod Buxoro” gazetasi sonlaridan birida “1923-yil 21-noyabrda Buxoro ko‘chalaridan birida tez yuradigan avtomobil Sharif Ismoil soatsozni bosib o‘ldurg‘on” mazmunidagi noxush xabar bosilgan.



Arxiv manbalari bilan tanishish asnosida amin bo‘ldikki, BXSR hukumati rahbarlari Fayzulla Xo‘jayev va Otaulla Xo‘jayevning sa’y-harakatlari bilan 1923-yilning boshlarida Buxoroga “Fort” markali Amerika yengil avtomobili keltirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Milliy Arxivi, R – 48-fond, 1-ro‘yxat, 171-yig‘ma jild, 70-varag‘idagi yozuvlardan ma’lum bo‘lishicha, BXSR harbiy noziri Xalq Nozirlar Kengashi raisiga 1923-yilning 26-fevralida 504-raqamli bildirishni yo‘llab, unda: “Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi ixtiyoriga “Fort” markali yengil avtomobil olib kelindi. 1923 yilning bahorida avtomobil haydovchilar otryadi tashkil etilib, bir necha “Fort” markali yengil avtomobillar keltiriladi va ular barcha yo‘llar bo‘ylab qatnay boshlaydi” deb xabar qilingan.

Ikkinchi bir hujjatda esa 1923-yilning kuzida BXSR Xalq Xo‘jaligi Kengashi Eski Buxoro – Yangi Buxoro ya’ni Kogon oralig‘idagi 12 kilometrlik masofada avtomobil yo‘li qurish, yo‘lni avtoulovlarga moslab ta’mirlash uchun davlat byudjetidan 30 milliard rubl mablag‘ ajratilgani bildirilib, bu ishni amalga oshirish uchun yo‘l qurilishi muhandisi A.Zaxaryanga 240 ta Buxoro tangasi va boshqa zarur jihozlar berilgani aytiladi.

Arxiv hujjatlari va BXSR matbuoti ma’lumotiga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, 1923-yilning kuzidan Buxoroi Sharif ko‘chalarida, shuningdek, Buxoro – Kogon yo‘nalishida kam sonli bo‘lsa-da avtomobillar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Zamonaning zaylini qarangki, bir asr oldin Buxoroi Sharif ko‘chalarida ahyon-ahyonda avtomobil qatnardi. Bugunga kunga kelib esa ularning yo‘llarda qatorlashib, tirbandlikni yuzaga keltirishi, uzog‘imizni yaqin qilishi oddiy holga aylanib qoldi. Muhimi, Mustaqillik yillarida O‘zbekiston dunyoning avtomobil ishlab chiqaradigan oz sonli davlatlarining biriga aylandi.

Shodmon HAYITOV,
professor,
tarix fanlari doktori.

ASAKADA OQOVA SUV TIZIMI YANGILANMOQDA

Shu kunlarda Andijon viloyatining barcha hududlarida aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Infratuzilmani takomillashtirish, zamonaviy loyihalarni hayotga tatbiq etish orqali fuqarolar turmush darajasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asaka tumanida oqova suv tarmog‘ini yangilash ishlari olib borilyapti. Loyiha doirasida iste’molchilarning kundalik ehtiyojini qondirish, sanitariya holatini yaxshilash hamda ekologiyaga bo‘lgan munosabatni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

— Asaka tumanidagi oqova suv tarmog‘i 1975-yilda qurilgan bo‘lib, bugungi kunda yaroqsiz holatga kelib qolgan, — deydi “Andijon suv ta’minoti” AJ oqova suv tozalash inshooti mexanik-texnologi Sultonboy Ibragimov. — Shu bois 2 ming 200 metr uzunlikda yangi quvur tortish ishlariga kirishildi. Buning uchun Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan “Sohib qurilish dizayn” MCHJ tomonidan to‘rtta texnika vositasi va 15 nafar tajribali ishchi jalb etilgan.



Loyiha foydalanishga topshirilgandan so‘ng 170 dan ziyod korxona va tashkilot hamda 40 ming nafar aholiga xizmat ko‘rsatish sifati yanada yaxshilanadi.

S. HUSANZODA,
jurnalist.

O‘ZBEKNING QIRG‘IZ QIZI

Xonobod shahri respublikamizning eng olis hududida joylashgan. U o‘zining betakror tabiati, iqlimi bilan mashhur. Bu yerda Xonobodni yurakdan sevuvchilar ko‘p. Shulardan biri Erkinoy Abjamilova aslida qirg‘iz millatiga mansub.

Xonobod shahrida tug‘ilib, shu manzilda kamol topdi. Garchi, o‘zbekona muhitda voyaga yetgan bo‘lsa-da, shundoqqina derazasidan ko‘zga tashlanib turgan Qirg‘iziston Respublikasidagi qishloqlar ham unda katta qiziqish uyg‘otardi. Shu tariqa har ikkala millat madaniyati, qadriyatlariga mehr bilan ulg‘aydi.

2017-yili Prezidentimizning Xonobod shahriga tashrifi bu yurt hayotida yangi sahifa ochdi. Shu kundan boshlab shaharga kirib-chiqishdagi pasport tizimi bekor qilindi. Keyinchalik qo‘shni davlat bilan chegaralar ochilib, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlari yaxshilandi. Bundan ruhlangan Erkinoy ikki davlat, ikki millat o‘rtasidagi munosabatlar rivojiga hissa qo‘shishni istadi.

– Shahrimiz adirlik yonbag‘irida joylashganligi sabab betakror manzaraga ega, – deydi Erkinoy. – Biroq, uning foydalanilmay turgan joylari juda ko‘p. Men dengiz sathidan 800 metr yuqoridagi tashlandiq joyda tozalov ishlarini amalga oshirdim. Daraxt ko‘chatlarini ekib, «Altin Ordo» (“Oltin o‘rda”) dam olish va ovqatlanish maskanini ishga tushirdim. Yigirma turdan ziyod qirg‘iz milliy taomlarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yib, o‘tovlar tikladim. Qo‘shni davlatning bir parchasini barpo etdim. Bu esa sayyohlarni befarq qoldirmadi. Hozirda bir paytning o‘zida 200 nafar mehmonlarga xizmat ko‘rsatmoqdamiz. Qo‘shni davlatdan tashrif buyuruvchi mehmonlarning taklifini inobatga olgan holda endilikda o‘zbek va Yevropa taomlarini ham tayyorlayapmiz. Maskanimizda sun’iy favvora, sharshara tashkil etganmiz. Milliy va zamonaviy o‘tovlarda o‘tirgan kishi butun shahar manzarasini tomosha qilishi mumkin. Qirg‘iziston Respublikasidagi bir nechta sayyohlik markazlari bilan kelishuvimizga asosan sayyohlik salohiyatini oshirishga ham hissa qo‘shib kelmoqdamiz. Erkinoy Abjamilovadagi g‘ayrat-shijoat mahalliy hokimlik e’tiborini jalb etdi. Undagi tadbirkorlik, ishbilarmonlik xususiyatlarini hisobga olgan holda vakolatli ishga taklif etildi. Ayni paytda u tadbirkorlar savdo-sanoat palatasining Xonobod shahar bo‘limi rahbari sifatida ham faoliyat olib bormoqda. Mingga yaqin yakka tadbirkor va hunarmandlar, shuningdek, o‘ttizga yaqin yirik ishlab chiqaruvchilar faoliyati orqali hudud iqtisodiyotini shakllantirish bo‘yicha istiqbolli loyihalar ustida ishlamoqda.





Erkinoy nafaqat xizmat faoliyati orqali, balki shaxsiy hayotida ham ikki xalqlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqqan. O‘zbek yigiti bilan turmush qurib, hozirda uch nafar farzandni tarbiyalamoqda.

– Qirg‘izistonda ko‘pchilik uchun “Qirg‘izning o‘zbek qizi”man, – deydi u suhbat davomida. – Men esa o‘tmishi, buguni va kelajagi bir bo‘lgan qardoshlarning ko‘zlagan maqsadi uyg‘unligidan quvonaman.

Oramizda shunday insonlar bor ekan, davlatlar o‘rtasidagi chegaralar xaritalardagina bo‘y ko‘rsatadi. Yurakda esa qardoshlik, qondoshlik va qarindoshlik tuyg‘ulari yashayveradi.

Saminjon HUSANOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.

MOZIYDA KATTA IZ QOLDIRGAN KO‘ZI OJIZ INSONLAR

Jahonda ko‘zlari ravshan ko‘rib ham tarixda biror nom qoldirmay o‘tib ketgan odamlar milliardlab topiladi. Shu bilan birga ko‘z nuridan ayrilib ham bashariyat xotirasida o‘chmas iz qoldira olgan shunday insonlar borki, ularning amalga oshirgan ishlari, hayot yo‘llari hammaga o‘rnak bo‘la oladi.



DOSTONCHI GOMER

Antik dunyoning eng mashhur dostonlari bu shubhasiz “Iliada” va “Odisseya”dir. Garchi biror bir aniq hujjat yoki yozma manba qolmagan bo‘lsa-da, bu ikki dostonning muallifi Gomer ismli so‘qir inson bo‘lganligi og‘izdan og‘izga ko‘chib, bugungi kungacha yetib kelgan. Ko‘hna dunyoning eng mashhur ko‘zi ojiz insoni nomi ham shu tarzda Gomerga nasib qilgan. Lekin shunga qaramay uning hayoti haqida aytarli ma’lumotlar yo‘q, taxminlarga ko‘ra u miloddan avvalgi VIII asrlarda yashagan, haligacha uning vatani nomi uchun yetti shahar da’vogarlik qiladi.

Gomer omma oldida dostonlarni yoddan o‘qib bergan va yildan yilga qiziqarli voqealar bilan boyitib boravergan. Bu dostonlarning ahamiyati shundaki, ular o‘sha davr ruhiyati, madaniyati haqida beqiyos qo‘llanma bo‘lish bilan birga juda ko‘p boshqa asarlar yaratilishiga ham turtki bo‘lgan. Jahonga mashhur “Troya” badiiy filmi ham Gomer dostonlari syujetlari jamlanmasidir.

BRAYL LUI



Bugun deyarli har bir ko‘zi ojiz inson o‘qishni biladi va buning uchun ular yana bir shunday taqdir egasi – Lui Brayldan minnatdor bo‘lishlari lozim. 1809-yilda Fransiyaning Kuvre shaharchasida tug‘ilgan Lui 3 yoshida otasining ustaxonasiga kiradi va bir asbobdan jarohatlanadi. Jarohat og‘ir asorat – ko‘zi ojizlikka sabab bo‘ladi.

U paytlarda ko‘zi ojizlar uchun maktablar bo‘lmagani uchun ota-onasi Luini oddiy maktabga berishadi. Dastlab o‘z xotirasiga suyanib amallab o‘qigan Lui 10 yoshida ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus stipendiya sohibi bo‘ladi. Braylda harbiylar qorong‘ida foydalanuvchi yozuv tizimini o‘zi kabilar o‘qishi uchun qo‘llash fikri tug‘iladi va shuning ustida ish boshlaydi. 20 yoshli Lui olti nuqtali kodga asoslangan, bugungi kunda butun dunyoda foydalaniladigan alifboni yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Bu yozuv nafaqat yozuv, balki ilmiy ramzlarni ham ifodalash imkonini berardi. 1834-yilda Brayl o‘z ixtirosini Parij sanat ko‘rgazmasida namoyish qiladi va keyingi 20-yil ichidayoq bu alifbo butun dunyoga tarqalib ulguradi. Bugungi kunda ham bu yozuv butun dunyoda ko‘zi ojizlarning rasmiy yozuvi hisoblanadi.

BOCHELLI ANDREA



Yaqinda O‘zbekistonga kelib ketgan italiyalik bu san’atkor iste’dodi hatto mashhur Pavorottini ham hayratga solgan.

Andrea bolaligidan ko‘zi bilan bog‘liq muammolarga duchor bo‘lgan va 12 yoshiga qadar 12 marta turli-tuman operatsiyalar o‘tkazib, oxir-oqibat butunlay ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan. Dastlab qattiq tushkunlikka tushgan bolakay qo‘shiq aytish orqaligina taskin topardi. Qishloqda, ferma yaqinida yashagan Bochelli odamlar bor yoki yo‘qligiga qaramay bor ovozda kuylayvergan.

O‘smirligida u bir necha musiqa festivallari g‘olib bo‘lgan Andrea ma’lum muddat san’atdan chekinib, Piza universitetining huquqshunoslik fakultetiga o‘qishga kiradi.

Ammo uning taqdiriga huquqshunoslik emas, san’at bitilgandi. Italiyalik tenor Franko Korelli bilan hamkorligi unga mashhurlik eshiklarini ochadi. Kunduzlari o‘qigan Andrea kechalari restoranlarda qo‘shiq aytib pul topardi. 90-yillarda uning qo‘shiqlarini kimsan Luchano Pavorotti eshitadi va festivalga taklif etadi. Shu-shu Bochelli minglab tomoshabinlar oldida kuylay boshlaydi. Bu tomoshabinlar orasida hatto Rim papasi ham bo‘lgan.

DEVID BLANKETT



Tug‘ma ko‘zi ojizligiga qaramay bu inson Toni Bler hukumatida Buyuk Britaniya ichki ishlar vaziri bo‘lgan. Ko‘zi ojizlar baland martabalarga erisha olmasliklari bo‘yicha tushunchalarning xato ekanligini Devid Blankett isbot qilgan.

Ota-onasi hamisha o‘ziga ishongan yigit qilib ulg‘aytirgan Devid siyosiy va ijtimoiy fanlarni o‘zlashtiradi va Sheffild shahar kengashi a’zosiga aylanish orqali siyosatga kirib keladi. 1987-yilda parlament a’zosiga aylangan Blankett keyinchalik vazir darajasiga ko‘tariladi. Eng muhimi, u bu darajaga ko‘pchilik o‘ylaganinidek yuqoridagilarning achinish hissi tufayli emas, o‘zining mehnatkashligi va aql bovar qilmas xotirasi orqali erishgan.

PULITSER JOZEF



O‘zini hurmat qilgan har bir jurnalist “Pulitser” mukofotini olishni orzu qiladi. Ammo o‘zidan so‘ng nomida shu qadar mashhur mukofot qolishiga sabab bo‘lgan inson faoliyatining ayni gullagan davrida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganini ko‘pchilik bilmaydi.

1847-yilda Vengriyaning Mako shahrida tug‘ilgan Jozef 17 yoshida baxt izlab AQSHga jo‘naydi va muxbirlik faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik u siyosiy irodasini mustahkamlab boradi va Missuri shtati qonunchilik kengashida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘ladi. U poraxo‘rlikka qarshi kurashdagi qarashlari bilan omma e’tiborini qozonadi. 1872-yilda Pulitser Sent-Luisdagi ikki gazetani sotib oladi va ularni birlashtirib, kuchaytiradi. Jurnalistik surishtiruvlar asosida qator korrupsion guruhlarni fosh qilish ortida uning obro‘si ortib ketadi.

1883-yilda u “New York World” nashrini sotib oladi va o‘z imkoniyatlarini yanada oshiradi. Hukumat darajasidagi firibgarlarning kirdikorlarini fosh qiladigan bu gazetada yumor ham, reklama ham, maqolayu hikoyalar ham bor edi.

Keng ommaga mo‘ljallanganlik o‘z ishini berdi va Pulitser qo‘liga tushgunga qadar 15 ming adadda chiqadigan gazeta million nusxagacha chop etiladi va sotiladi.

Ammo Jozef o‘z mehnatlaridan ko‘ngildagidek quvona olmaydi. Chunki u 1887-yilda, ijodi ayni gullagan chog‘da ko‘rish qobiliyatini deyarli butunlay yo‘qotadi va bosh muharrirlik o‘rnini bo‘shatishga majbur bo‘ladi.

1911-yilda vafot etgan Jozef Pulitser o‘zining 2 mln dollar boyligini Kolumbiya universitetiga, jurnalistlar oliy maktabi tuzish uchun qoldiradi. Jurnalistika sohasidagi eng nufuzli mukofot uning nomida ekanligi ham bejiz emas.

Shuningdek ko‘rish qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotgan Galileo Galiley, Klod Mone, Nikolay Lobachevskiy, Garriyet Tabmen, Xelen Keller, Stivi Uander kabi insonlar ham borki, ularning ham insoniyat tarixiga o‘z nomlarini yozib qo‘ya olganlar.

Abror ZOHIDOV

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 31.10.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 31.10.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li